



**"ZIYORAT TURIZMI VA MAHALLIY AHOLI:
ZIYORATGOHLAR ATROFIDAGI
HUDUDLARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA
IJTIMOIY MAS'ULIYAT"**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

AXBOROT XATI

2026-YIL 31 - MART



**“ZIYORAT TURIZMI VA MAHALLIY AHOLI: ZIYORATGOHLAR
ATROFIDAGI HUDUDLARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA IJTIMOIIY
MAS’ULIYAT” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

AXBOROT XATI

2026-YIL 31 - MART



KONFERENSIYA HAQIDA

Ziyorat turizmi bugungi kunda diniy merosni asrab-avaylash bilan bir qatorda, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi strategik yo’nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Ziyoratchilar oqimining ortishi yangi ish o’rinlari yaratish, xizmat ko’rsatish infratuzilmasini kengaytirish va mahalliy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda infratuzilma yuklamasi, ekologik barqarorlik, manfaatlar muvozanati va ijtimoiy mas’uliyat kabi masalalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan, Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti hamda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi hamkorligida **2026-yil 31-mart** kuni **“Ziyorat turizmi va mahalliy aholi: ziyoratgohlar atrofidagi hududlarda barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyat”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etiladi.

Tadbir doirasida ziyorat turizmining mahalliy aholi hayot sifatiga ta’siri, hududiy rivojlanish modellari, ijtimoiy mas’uliyat mexanizmlari va boshqaruv yondashuvlari muhokama qilinadi. Konferensiyadan avval o’tkaziladigan so‘rovnoma orqali mahalliy aholi fikr-mulohazalari o‘rganilib, aniqlangan muammo va takliflar ekspertlar muhokamasiga taqdim etiladi.

Konferensiya o‘tkazilish joyi va sanasi: 2026-yil 31-mart

Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti.

Soat: Tadbir boshlanishi: **10:00**, ro‘yxatga olish: **9:00**.

Tadbir tili: o‘zbek, rus, ingliz.

Zoom havola: <https://surl.li/spjoxn>

Konferensiyaning maqsadi:

- ziyorat turizmi rivojlanishining mahalliy aholi farovonligiga ta'sirini baholash.
- hududlarda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish.
- ijtimoiy mas'uliyat mexanizmlarini takomillashtirish hamda so'rovnoma natijalariga asoslangan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
- xalqaro tajriba almashinuvi orqali O'zbekiston ziyorat turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

KONFERENSIYA TASHKILOTCHILARI

- TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
- TOSHKENTDAGI SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
- O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI

KONFERENSIYA MUHOKAMA MAVZULARI

1. Ziyorat turizmi va mahalliy aholi manfaatlari muvozanati

- Ziyorat turizmining hududiy daromad va bandlikka ta'siri;
- Mahalliy aholining turizm qiymat zanjiridagi ishtiroki;
- Daromadlarning adolatli taqsimlanish mexanizmlari;
- Aholi manfaatlarini inobatga olgan boshqaruv modeli.

2. Ziyoratgohlar atrofida barqaror hududiy rivojlanish

- Infratuzilma yuklamasini boshqarish va rejalashtirish;
- Ekologik barqarorlik va yashil hududlarni saqlash;
- Transport va servis infratuzilmasini optimallashtirish;
- Urbanizatsiya jarayonlarida madaniy merosni himoya qilish.

3. Turizmda ijtimoiy mas'uliyat va hamjamiyatga asoslangan yondashuv

- Community-based tourism mexanizmlarini joriy etish;
- Mahalliy tadbirkorlik va oilaviy mehmon uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- Xotin-qizlar va yoshlar bandligini oshirish;
- Turizm subyektlarining ijtimoiy mas'uliyat standartlari.

KONFERENSIYADA TAQDIM ETILADIGAN MATERIALLARGA QO'YILGAN TALABLAR:

Konferensiya materiallari **MS Word-2003, 2007 (DOC, DOCX)** formatida bo'lishi kerak, **Times New Roman** shrifti, o'lchami 14, **1 sm** paragraf, **1** oraliq, har bir tomondan **2 sm** chegara bo'lishi kerak. Maqola materiali hajmi (jadval, rasmlar, chizmalar va internet resurslari bilan) kamida **6-8 sahifa**, tezislar - **3 sahifa** bo'lishi zarur.

Ilmiy maqolalar va ma'ruzalar tarkibi: muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi (to'liq), ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi, oliy o'quv yurtining yoki tashkilotning nomi - birinchi sahifaning o'ng yuqori burchagida, ma'ruzaning sarlavhasi markazda (qalin harflar bilan), asosiy matn, adabiyotlar ro'yxati.

Faqat tahrir qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan mualliflarning maqola va annotatsiyalari nashr etiladi; mualliflarga konferensiya materiallari to'plami PDF formatida taqdim etiladi.

Konferensiya materiallari to'plami va nashri, konferensiya tashkilotchi qo'mitasi tomonidan ekspertlar fikriga asoslanib tahrirlanadi va tavsiya etiladi.

Maqolalar (tezislar)ni qabul qilish uchun javobgar shaxslar:

Juraeva Dildora (+998 97) 489 97 79

Toshpulatova Mohidil (+998 97) 475 77 55

Ilmiy maqolalar va ma'ruzalarni taqdim etish uchun oxirgi muddat: 2026-yil 20-mart.

Materiallar quyidagi elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin:
research@mdist.uz

TASHKILIY QO'MITA MANZILI

Manzil: Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, O'zbekiston, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 28, 100185.